



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 3-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTINING 2023-YILGI SOVRINDORLARI



Ushbu sonda



TILSHUNOSLIK

Ingliz tilini o'rganishda
tinglab tushunish
ko'nikmasini
rivojlantirish mexanizmi

9
bet



TAHLIL

Itimoiy fikrni
shakllantirishda tahliliy-
tanqidiy jurnalistikaning
o'rni

19
bet



TADQIQOT

Badiiy asarlardagi taom
realialari va gluttonim
o'xshatmalarining
pragmatik xususiyatlari

26
bet



ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Интеллектуальные
системы и их
использование в
образовательном
процессе

53
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2023-yil.
3-son.**

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxunor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalida nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari borishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.30.03. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Ariala» garniturasi. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHU bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma Adadi 4000 nusxa. Bahosi kelishilgan narxida.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

MUNDARIJA

METODIK TAVSIYA

Mahliyo Jakbarova. Alisher Navoiy asarlarida nutq so'zlash masalasi	3
Oydin Mo'minova. Talabalar nutq odobini rivojlantirishga doir metodik ko'rsatmalar	5

TILSHUNOSLIK

Muyassarxon Baxriddinova, Nasiba Rasulova. Yuridik terminlar lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari va tezaurus masalasi	7
Nargiza Xo'jaqulova. Ingliz tilini o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmi	9
Shahlo Botirova, Madina Yulchiyeva. Theoretical basis of using song materials in teaching english	11
Elyor Boymanov. Turizm terminlarining leksik-semantik guruhlarini	13

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nilufar Duschanova. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning afzalliklari	16
---	----

TAHLIL

Nilufar Namozova. Iltimoiy fikrni shakllantirishda tahliliy-tanqidiy jurnalistikaning o'rni	19
Nurjan Abduvalitov. Badiiy asarni ijodkor tarjimai holi kontekstida o'rganish	21
Oqiljon Mavlonov. Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy timsollar	23

TADQIQOT

Gulnoza Odilova. Badiiy asarlardagi taom realiyalari va glutonim o'xshatmalarining pragmatik xususiyatlari	26
Shukur-ali Atayev. O'qishning psixologik xususiyatlari	29
Sayyora Samiyeva. Talabalarining ingliz tilidagi nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini takomillashtirishda grammatik hodisalarning shakli, ma'nosi va qo'llanishiga oid mashqlardan foydalanish	31
Muborak Jo'rayeva. Chet til darslarida talabalarining og'zaki nutqini rivojlantirishda multimedia taqdimotlarining o'rni	34

KICHIK TADQIQOT

Davronbek Oripov. Kechirmas ota Qo'rqud otaga bog'liqligi?	36
Kamaladin Matyakubov. Texnologik ta'limni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishning funksional modeli	38
Elmirza Erkayev. Mustaqil ta'limni tashkil etishda mashqlarning ahamiyati	39
Saodat Gayupova. Individual ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar	41
Farizod Akromova. Xalqini kuylagan shoir	42
Gulnora Xolmurotova. Xalq badiiy tafakkuri durdonalari	44
Gulchehra Darvishova. Description of female characters in the works of charlotte bronte	46

MULOHAZA

Dilbar Narzullayeva. So'zdan yetgan talafot	47
---	----

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Наргиза Насырова. Выражение определительных отношений в простом предложении	49
Азиза Ахмедова. Интеллектуальные системы и их использование в образовательном процессе	53

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Любовь Раджабова. Способы обучения студентов различным навыкам	55
--	----

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Бахтиёр Данияров. Шифокор – собственно узбекское, не заимствованное слово	57
Инобат Нарзиева. Лексико-мотивационные значения узбекских антропонимов	59

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Феруза Жумаева. Сходство и различие артикуляции в русском и узбекском языках	62
Сухроб Аvezов. Особенности и различия параллельного корпуса русского и узбекского языков	66

ПОСТРОЕНИЕ РЕЧИ

Хилола Юнусова. Моделирование коммуникативных процессов	69
---	----

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ

Анжелла Бабаева. Лингвокультурные аспекты изучения русского языка на неязыковых факультетах	71
---	----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Бахтиёр Гафуров. Компаративное исследование текстов медицинской рекламы	73
Нилуфар Абдуллаева. Описание характеристик пословицы на примере узбекских и французских пословиц	75

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Нина Рогозинникова. Филологическое обеспечение СМИ: опыт разработки нового курса	79
--	----

INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ta'lim berish pedagogikaning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatni tashkil qilish, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari, pedagogik jarayonga nisbatan yondashuvlar har bir davrning shart-sharoiti va talablaridan kelib chiqib tanlanadi, yangi zamonaviy yondashuvlar kashf etiladi. Bugungi kun pedagogikasi-da ta'lim jarayonini individuallashtirish orqali kompetensiyaviy, akmeologik, evristik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarblashmoqda [1]. Xususan, individual ta'lim texnologiyasi pedagogikada metodologik ahamiyatga ega mazmun va shakl hodisasi bo'lib, unda ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ularga individual yondashish, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish, o'quvchilarda muayyan kompetentlikni shakllantirish metodlari va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish bilan bog'liq muhim masalalarga o'ziga xos innovatsion yondashish nazarda tutiladi.

– Individual ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirilgan bo'lib, ular quyidagilar:

– talabalarning ta'limdagi mustaqilligini ta'minlash, ular uchun ma'qul bo'lgan metodlarni tanlash;

– talabalarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildirish;

– talabalarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o'z "men"ini namoyon qilishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish;

– talabalarning emotsional holati, shuningdek, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olish;

– talabalarning ta'lim olish strategiyasiga xos bo'lgan o'quv ko'nikmalarini maqsadli shakllantirish;

– ta'lim jarayonida professor-o'qituvchi va talaba vazifalarini qayta taqsimlash: professor-o'qituvchining yetakchilik rolini cheklash, unga yordamchi, maslahatchi sifatida qarash;

– talabalarning rivojlanish vektori uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

– har bir talabaning mavjud salohiyatidan kelib chiqib individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashish;

– ta'limni talabaning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, strategik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash tizimi, o'z-o'zini aniqlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, ijobiy "men"ini anglashga yo'naltirish [2: 5].

Ta'limning uzluksiz ravishda rivojlanib borishi dars mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish shakli-da kechmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan maqsad ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Individual ta'lim texnologiyasi ta-

laba shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish, uning qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklar, shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Mazkur texnologiyada ta'lim oluvchi ta'limning keng imkoniyatlarga ega subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Professor-o'qituvchining talabaga munosabati individual ta'lim texnologiyasida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ushbu texnologiyani loyihalashtirishda ta'lim oluvchi shaxsining ruhiy, jismoniy va yosh xususiyatlari, uning fanga tayyorlik darajasining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limda individual yondashuvning yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– dars davomida barcha talabalarning mehnatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni yaratish;

– talabalarga dars boshida nafaqat mavzu, balki dars davomida o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ma'lumot berish;

– talabalarga o'quv materialning turi va shaklini (og'zaki, grafik, shartli-majoziy) tanlashga imkon beruvchi texnologiyalardan foydalanish;

– muammoli ijodiy vazifalardan foydalanish;

– talabalarni topshiriqlarni bajarishning turli yo'llarini tanlash va mustaqil ishlatishga undash;

– dars mashg'ulotida javob bergan talabalarni baholash (rag'batlantirish)da ularning nafaqat to'g'ri javoblari, balki qanday mulohaza yuritgani, qanday usuldan foydalangani, nima uchun xato qilgani va bunga olib kelgan sabablarni tahlil qilish;

– dars oxirida talabalar bilan nafaqat nimalarni o'rganganini muhokama qilish, balki dars jarayonida nimalar ma'qul (yoki noma'qul) bo'lgani va yana nimani xohlashlarini, qanaqa yo'llardan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida ularning fikrini o'rganish;

– dars oxirida talabaga berilgan bahoni turli parametrlarda: to'g'rilik, mustaqillik, originallik, ijodiy yondashganlik bo'yicha izohlash;

– topshiriqlarni faqat mavzu va masalalar doirasini belgilab berish bilan emas, balki uni bajarishning oqilona yo'llarini ham tushuntirish.

Ta'limda individual, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldiradi [3]. Mazkur yondashuvlarni birlashtiruvchi jihatlar quyidagilardan iborat:

– an'anaviy ta'limning maqbul tomonlarini saqlagan holda unga dars mashg'ulotida o'quvchini faollashtirish bilan bog'liq yangi metodlarni kiritish;

– talaba bilan individual tartibda ishlash metod va texnologiyalarini takomillashtirish;

– mashg'ulotlardagi nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatiga e'tiborni kuchaytirish;

– mashg'ulot jarayonida o'qituvchining avtoritar faolligini kamaytirish, uning moderator, tashkil qiluvchi va maslahatchi sifatidagi faolligini oshirish;

– talabalarning mustaqil ishlashlari, berilgan topshiriqlarga nisbatan ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish;

– ta'lim jarayoni subyekti va obyekti o'rtasida interfaol munosabatni yo'lga qo'yish;

– talaba shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish;

– ta'limni jarayonini tashkil qilishda muayyan qoliplardan foydalanmaslik;

– ta'limga ijodiy jarayon sifatida qarash.

Tadqiqot natijalari asosida ta'limda individual yondashuvni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Bular quyidagilar:

1) professor-o'qituvchining talabalarga o'z fikrlash tarzini ro'kach qilib, ulardan ham shunday fikrlashni talab qilishdan tiyilishi;

2) talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

3) turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, o'qitish jarayonida mavjud bilimlarni yodlash va xotirada saqlashdan ko'ra masalaning mohiyatini tushuntirishga e'tiborni qaratish;

4) ilmiy terminlar va tushunchalarning ta'rif, qonuniyatlar va qoidalarni shunchaki yodlash emas, balki ularning mazmunini anglash va mohiyatini tushunishga urg'u berish. Bunda uning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda muayyan ta'rif, qoida va qonuniyatni analiz (tahlil) va sintez (tavsif) qilish metodi qo'l keladi;

5) dars mashg'ulotlarida talabalarni har bir fan, kerak bo'lsa har bir mavzu borasida hodisa va mohiyatni, sabab va oqibatni anglashiga, fan doirasida va fanlararo o'zaro bog'lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishlariga, chog'ishtirish, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishlariga sharoitlar yaratish;

6) talabalarda mohiyatga yetib kelishning yangi yo'llarini qidirishga rag'bat uyg'otish, bunda ularga xatoga yo'l qo'yishlari tabiiy hol ekanligini va bundan cho'chimaslik kerakligini tushuntirish;

7) yangicha fikrlar bilan talabalarni kulgiga qolmasliklariga ishonitirish;

8) bir nechta masalani bir usulda yechishdan ko'ra bir masalani bir nechta usullar bilan yechishga qaratilgan metodlardan foydalanish;

9) talabalardagi ijodiy fikrlash tarzining har qanday ko'rinishlarini rag'batlantirish;

10) talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

11) har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish.

Individual yondashuvga asoslangan ta'limda didaktik materialning turlari o'quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat. Vazifalar mavzu, murakkablik darajasi, foydalanish maqsadi bo'yicha ko'p darajali, tabaqalashtirilgan, individual yondashuv, o'quvchi o'quv faoliyatining yetakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karuteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1976. 200–207-betlar.
2. Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-bet.
3. Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2014. 31-bet.
4. Indiaminov N., Babajanov B. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim // Zamonaviy ta'lim, 2014, №8, 18–22 betlar.
5. И.С.Якиманская. Основы личностно-ориентированного образования. – Москва: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
6. Botirova Sh.I. Forming patriotic spirit within pedagogical education cluster // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020, 8(10), pp. 200–205.
7. Botirova Sh.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yangi ustuvor yo'nalish sifatida // Academic Research in Educational Sciences, 2020, 1(3), 487–494-betlar.

Farizod AKROMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

XALQINI KUFLAGAN SHOIR

(Per-Jan Beranje hayoti va ijodi)

XIX asr birinchi yarmi fransuz adabiyotining taniqli vakili shoir, satirik she'rlar va qo'shiqlar muallifi Per-Jan Beranje 1780-yil 19-avgustda Parijda tavallud topgan. Mehnat faoliyatini otasi asos solgan bankda boshlagan.

Beranje to'qqiz yoshga to'lganida Parijda Buyuk fransuz burjua inqilobi ro'y beradi. Per-Jan uylarining tomida turib parijliklar isyoni va Bastiliya qal'asi zabt

etilishining guvohi bo'lgan. Shoir 1789-yilning 14-iyul kunini, shovqin-suronli, g'alaba nashidasini surayotgan Parijni, olomon to'la ko'chalarni, qirol qo'shinlari va oddiy xalq vakillarining quchoq ochib ko'rishishayotganini yaxshi eslab qolgan.

XVIII asrning isyonli yillari Beranje ijodida chuqur iz qoldirdi. U fransuz burjua demokratik inqilobi tamoyillari-